

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

V.A.Mamatraimova

Andijon Davlat Universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur ishda mustaqillik sabab ta'lim sohasida o'zgarishlar, "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi", Tibbiyot tizimida rivojlanish, Chet elda o'qish uchun ochilgan eshiklar, ma'naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan yaxshilash haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi.*

***Kalit so'zlar:** Fanlar akademiyasi, Yangi O'zbekiston, Prezident maktabi, ijod maktabi, Elektron ta'lim, Konsepsiya.*

Xalqimizning beqiyos jasorati va matonati bilan qo'lga kiritilgan, bizning milliy davlatchiligimizni, insoniy qadr-qimmatimiz, g'urur va sha'nimizni, din-u diyonatimizni tiklab bergan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi oradan qancha yillar, asrlar o'tsa- da, jonajon Vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin sahifa bo'lib qoladi.

Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Bugun biz barqaror rivojlanayotgan demokratik davlatda o'zaro ahillik va hamjihatlikda yashayapmiz. Erishilgan hozirgi yutuq va natijalarimizdan qoniqish hosil qilib, to'xtab qolish aslo mumkin emas. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatda ilm-fanga alohida e'tibor berildi. Xalq xo'jaligi va madaniy bayotning tobora ortib borayotgan talablaridan orqada qolayotgan ilmiy tadqiqot institutlari tugatildi. Turmush taqozo etgan yangi institutlar ochildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 3-aprelidagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi FAning yangi Nizomi tasdiqlandi.¹Eng avvalo, maktabgacha ta'lim

¹ Murtozayeva. "O'zbekiston tarixi". Toshkent-2005
www.pedagoglar.org

tizimi rivojiga alohida e'tibor qaratilib, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Oxirgi to'rt yilda kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2 barobar ortib, 27,7 foizdan 60 foizga yetgani, bog'chalar soni esa 3 marta ko'payib, 14 mingdan oshganí ana shunday islohotlar natijasidir. "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan g'oya asosida maktab ta'limi tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi. Shuningdek, bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangi-yangi zamonaviy bog'chalar barpo etilyapti. Qisqa vaqt, ya'ni to'rt yil ichida respublikamizda bog'chalar soni 3 barobar oshib, bog'cha yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 54 foizga yetgani ana shunday amaliy harakatlarimiz natijasidir. Sohaga davlat-xususiy sheriklik mexanizmi joriy etilishi tufayli 223 mingdan ortiq o'ringa ega bo'lgan 7 ming 400 ta xususiy bog'cha tashkil qilindi. Bu maqsadlar uchun 1 trillion 850 milliard so'm imtiyozli kredit mablag'lari yo'naltirilib, 20 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. 2003 yilning avgustida mamlakatda 6865 bolalar bog'chalari mavjud bo'lib, ularda 642000 bola tarbiya olmoqda. 64000 pedagoglar tarbiya ishlarini olib bormoqda. 9702 umumta'lim maktablarida 6 mln.272000 o'quvchi ta'lim tarbiya- olmoqda. 500 ming dan ortiq pedagog o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda. Ayni vaqtda 51 akademik litseylarda 30620 o'quvchi o'qimoqda, 419 kasb-hunar kollejlarda esa 285.685 yigit-qizlar hunar o'rganmoqda. Toshkent shahri va hududlarda Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar tashkil etilmoqda. 2016-yilda yurtimizda 77 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi 141 ta oliy o'quv yurtida 600 mingdan ziyod talaba bilim olmoqda. Oliy ta'limga qabul parametrlari 2020-yili 2016-yilga nisbatan 2,5 barobar o'sdi, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 25 foizga yetdi. 2030-yilga qadar bu ko'rsatkichni 50 foizga yetkazish mo'ljallanmoqda. 2019-yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta ijod maktabi ish boshladi. Oliy

ta'limni rivojlantirish uchun o'tgan yili 19 ta yangi oliy o'quv yurti, jumladan, 9 ta nufuzli xorijiy universitetning filiali ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016-yilga nisbatan 2 barobar ko'p talaba o'qishga qabul qilindi». Qabul kvotalari 2016-yilga nisbatan oshdi va natijada yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrovi 9 foizdan 25 foizga etdi. 2018-2019-o'quv yilidan boshlab 52 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi, 9 ta oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim, 43 ta oliy ta'lim muassasasida ikkinchi oliy ta'lim sirtqi shaklda joriy etildi. Yangi 66 ta ta'lim yo'nalishi va 48 ta mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. 16 ta oliy ta'lim muassasasida 10 ta xorijiy davlatning etakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 33 ta ta'lim yo'nalishi va 14 ta mutaxassislik bo'yicha qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlanmoqda. 2019-yilda oliy ta'limni moliyalashtirishga byudjetdan 1 trln. 289 mlrd so'm hamda 3 trln. 417 mlrd so'm kontrakt tushumlarini yo'naltirish rejalashtirilgan². "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" davlat Dasturida ko'zda tutilgan 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta maktabni ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida byudjetdan 2 trillion so'm ajratilishi, sohada yagona "elektron ta'lim" tizimini joriy etishga kelgusi 2 yilda 250 milliard so'm yo'naltirish, boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa — 100 foiz ustama haq to'lash kabi chora-tadbirlar sohadagi islohotlar samaradorligini ta'minlab beradi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib beradi. Soha xodimlarini moddiy rag'batlantirish, jumladan ularning uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha misli ko'rilmagan aniq choralar amalga oshirilmoqda. Toshkent

² R.E.XOLIQOVA. "O'ZBEKISTONNING EHG YANGI TARIXI" o'quv qo'llanma. Toshkent - 2021

shahrida eng yuksak xalqaro talablar asosida tashkil etilgan "Yangi O'zbekiston" universiteti mamlakatimizda oliy ta'limning flagmani - bayroqdori bo'ladi. O'g'il-qizlarimizning tadbirkorlik sohasidagi g'oya va tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ularni ish, daromad manbayi bilan ta'minlashda "Yoshlar - kelajagimiz", "Bir plus bir", "Har bir yoshga bir gektar" kabi dasturlarimiz muhim rol o'ynamoqda.

Sog'liqni saqlash sohasi rivoji-davlat va jamiyat taraqqiyoti, xalq hayotining farovonligida muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda tibbiyot sohasini tubdan isloh qilish borasida katta ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, tibbiyot tizimiga oid me'yoriy- huquqiy hujjatlar hamda boshqaruv tizimi bugungi zamon talablari asosida takomillashtirildi. Birlamchi tizimdagi qator islohotlar natijasida 2 mingta poliklinika va oilaviy shifokorlik punktlari tashkil etilib, aholiga o'z yashash manzillarida ambulator tibbiy xizmat ko'rsatilishi ta'minlandi. Shuningdek, 22 ta ixtisoslashtirilgan ilmiy- amaliy tibbiyot markazlari hamda ularning hududlardagi 124 ta filiallari va tumanlardagi 310 ta bo'limlarining tashkil qilinishi natijasida yuqori texnologik operatsiyalarni tuman darajasida amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ldi. Eng muhimi, tibbiyot sohasida transplantatsiya amaliyoti joriy etilib, buyrak, jigar va o'zak hujayrani ko'chirib o'tkazish kabi 700 dan ortiq murakkab operatsiyalar mamlakatimizda o'tkazilayotgani fuqarolarimiz uchun katta qulayliklar yaratmoqda. Keyingi ikki yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sohaga oid 50 ta farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 70 dan ziyod qaror va farmoyishlari qabul qilindi. 6 ta yangi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilib, ularning soni 16 taga yetdi. Xalqimizga yanada qulay bo'lishi uchun hududlarda ularning 10 ta filiali ish boshladi. Tuman va shahar shifoxonalarida 306 ta yangi ixtisoslashgan bo'limlar, 1 ming 200 ta tez tibbiy yordam shoxobchasi ochildi. Umuman olganda, joriy yilda tibbiyot sohasiga davlat byudjetidan 2017-yilga nisbatan 40 foiz ko'p mablag' ajratildi. Yig'ilishda kelasi yil sohaga qariyb 30 foiz ko'p mablag' yo'naltirish rejalashtirilgani qayd etildi. O'zbekistonda xususiy tibbiyot rivoji sohada sog'lom raqobatni yuzaga keltirdi. Xususiy tibbiyot tashkilotlari 129 ta tibbiy ixtisosliklar bo'yicha xizmat ko'rsatib, ularning soni 6 mingdan ortdi. Mamlakatimizda tibbiyot yo'nalishida oliy ta'lim muassasalari soni

11 taga yetdi. Joriy yilda esa N.I.Pirogov nomidagi Rossiya ilmiy tadqiqot tibbiyot universiteti filiali hamda Turkiyaning Sog'liq bilimlar universitetining Guliston filialini tashkil etish hamda 5 ta universitetda tibbiyot fakultetlari hamda Davolash ishi va Pediatriya ishi ta'lim yo'nalishlari faoliyatini yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

Bugungi kunda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilyapti. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilyapti. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi. Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018-yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi. Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga yetkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lamini yanada kengaytirdi. Yaqin-yaqingacha universitet asosan pedagogik soha uchun mutaxassislar tayyorlar edi. Bugungi kunda universitetda Arxeologiya, Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish, Sotsiologiya, Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha), Kutubxona-axborot faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha), Zootsiyeneriya: baliqchilik, Mevachilik va uzumchilik, Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi, Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik, Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish, Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha), Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha), 2021-yildan boshlab esa Davolash ishi, Pediatriya ishi kabi yo'nalishlarda kadrlar tayyorlashni

boshlaganligi oliygohimizni haqiqiy ma'noda viloyatimizning aql markaziga aylanayotganligidan dalolat beradi. Universitet yirik ilmiy-tadqiqot markazi sifatida Namangan davlat universitetida media markaz tashkil etish, Akvakultura bo'yicha o'quv-amaliy trenajer tashkil etish, "Dorivor o'simliklardan shifobaxsh ichimliklar tayyorlash", Shifobaxsh profilaktik Sumalak ishlab chiqarish texnologiyasi, Farg'ona vodiysida tarqalgan kamyob va yo'qolib borayotgan hamda endem turlarning tirik kolleksiyasi, elektron fotoalbomi va raqamlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasini yaratish kabi yirik xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etyapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan oliy ta'lim tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayayotgani ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash va bu borada Prezident hamda hukumatimiz belgilab bergan vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.³

Demak, xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yana-da keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir. Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida — sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti davlat rahbari sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, respublikamizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlashtirishga qaratganligi bejiz emas. Davlatimiz rahbarining

³ www.Yuz.uz.com. S.Turg'unov. Namangan davlat universiteti rektori Yangi O'zbekiston: Yangicha ta'lim tizimi va Yangicha yondashuvlar. www.pedagoglar.org

shundan keyin sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko'plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e'tiborning amaliy ifodasi edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Yangi O'zbekiston foto-albom.2021
2. R.E.XOLIQOVA. "O'ZBEKISTONNING EHG YANGI TARIXI" o'quv qo'llanma. Toshkent - 2021
3. Murtozayeva. "O'zbekiston tarixi" .Toshkent-2005
4. www.yuz.uz.com
5. www.ziyo.uz.com